

SHARQ MASH'ALI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

4
2024

*Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiga boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi
ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)*

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. ISHQOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.)
LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Ankara univ. prof.)
A. VOROBIEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

Nashrga tayyorlovchilar:
J. ISMOILOV, H. SULAYMONOVA
L. HAMDAMZODA,
G. HUSHNAZAROVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'naliishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash'ali, 2024 yil 4-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 4, 2024-yil

<i>Adabiyotshunoslik</i>	Muhiddinova D. Zamonaviy arab va o'zbek yozuvchilari asarlarida qur'oniy qissa va rivoyatlarning badiiy talqini 2 Turdiyeva O. Eronda hikoya janri taraqqiyotida Muhammad Ali Jamolzodaning o'rni 7 Ashurova M. Xitoy adabiyotida esse janrining paydo bo'lishi va taraqqiyoti 14 Yusupova D. Siyovush Kasroiy she'riyatida Simurg' qushi talqini 22 Umarova N. "Quyonlar" qisqa romanida lakovizm va badiiy til xususiyatlari 31
<i>Tilshunoslik</i>	Korayem S. Modern linguistic trends in language education 43 Азимджанова Д., Абсаломова Н. Выражение гнева в персидском языке: лингвистический и культурологический анализ 54 Abubakirov J. "Gunki monogatari" badiiy til xususiyatlari va tipologiyasi 64 Muxammadjonov A. "Arab tilida sinonimiya, uning leksik-semantik rivojlanish sababları: klassik va zamonaviy yondashuvlar" 71 Shukurov A. Arab tilidagi harbiy atamalarni tasniflashning o'ziga xos xususiyatlari 81
<i>Tarix</i>	Xodjimuratova D. Eron davlat boshqaruvi tizimida diniy va dunyoviy institutlarning o'rni 90 Alimov Z., Abruraximov A. Markaziy Osiyoning islomiy intellektual merosi: as-Sam'oniyining "Mu'jam ash-shuyux" asaridagi bio-bibliografik mulohazalar asosida 99 Taylagov T. Falastinning demografik tarixi 108
<i>Tashqi siyosat</i>	Худайбердиева С. Изучение пожилых людей в геронтологии и их типы 116 Kushanova Y. Markaziy Osiyo va Fransiya munosabatlari tadqiqotchilar nigohida 124 Sayfullayev N. Turkiya tashqi siyosati bo'yicha asosiy mafkuraviy yondashuvlar 131 Xayrullayeva I. Hindiston ta'lif sohasida xotinqizlar ishtiropi va ahamiyati 137 Qalandarov O'. Eronning 1979-yildagi inqilobdan keyin Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi 144

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Eron islam respublikasi Konstitutsiyasi, http://rc.majlis.ir/fa/content/iran_constitution قانون اساسی جمهوری اسلامی ایران.
2. Naini. Iran's second chamber? The guardian council'// The Journal of Legislative Studies, Vol. 12, 2, 2006, P. 198–222.
3. Ghiabi, M. The council of expediency: crisis and statecraft in Iran and beyond // Middle Eastern Studies, Vol. 55, 5, 2019, P. 837–853.
4. Valibeigi, M. Islamic Economics and Economic Policy Formation in Post Revolutionary Iran: A Critique // Journal of Economic Issues, 1993. Vol. 27, 3, P. 799.
5. Akhavi-Poor, H., Azodanloo, H. Economic bases of political factions in Iran // Critique: Journal for Critical Studies of the Middle East, 1998. Vol. 7, 13, pp. 69–82.
6. Васькин И. Влияние политического курса избираемых органов власти на неизбираемые в опекунских режимах: кейс рекрутования в Ассамблею по определению целесообразности Ирана // Вестник Пермского университета. Политология. Т. 15. №4. 2021. С. 100.
7. Сажин В.И. Корпус стражей исламской революции в Иране – государство в государстве // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 10. № 3. 2017. С.107–108.
8. Дунаева Е.В. Иран: изменение баланса политических сил после выборов Х.Роухани // Актуальные проблемы Ближнего и Среднего Востока. М.: ДА МИД РФ. 2017. С. 25.
9. مرحله دوم انتخابات مجلس شورای اسلامی ۲۱ اردیبهشت ۱۴۰۳ برگزار می‌شود.
10. (Islom kengashi saylovlarining ikkinchi bosqichi 2024-yilning 21-mayida bo‘lib o‘tadi). [Elektron manba]. URL: <https://www.irna.ir/news/85421995/>.
11. روح الله خمینی و لایت فقیه. حکومت اسلامی موسسه تنظیم و نشر آثار امام خمینی (ره). 1383. ص.184.
12. (Ruhulloh Xumayniy. Velyoyate fakih. Imom Xumayniy asarlarini tahrir qilish va nashr etish bo‘yicha Islom hukumati instituti. 1383 yil. 184 b.)



**MARKAZIY OSIYONING ISLOMIY INTELLEKTUAL MEROsi:
AS-SAM’ONIYNING “MU’JAM ASH-SHUYUX” ASARIDAGI BIO-
BIBLIOGRAFIK MULOHAZALAR ASOSIDA**

ZUHRIDDIN ALIMOV

t.f.f.d. (PhD), dotsent, TDSHU

ABDULLO ABDURAXIMOV

magistrant, TDSHU

Annotatsiya: Mazkur maqola XII asrning yirik allomalaridan biri bo‘lgan Abu Sa’d as-Sam’oniy tomonidan yozilgan “Al-muntaxab min mu’jam ash-shuyux” nomli bio-bibliografik asar asosida Markaziy Osiyo islomiy ilm-fani va adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi tarixini yoritadi. Asarda Movarounnahr hududida yashab ijod qilgan yuzlab olim va adiblar haqida noyob ma’lumotlar jamlangan bo‘lib, ularning hayoti, ilmiy faoliyati, safarlari, ustoz-shogirdlik aloqalari, shaxsiy xususiyatlari va ijodiy merosi batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada tazkiranavislik an’analaring paydo bo‘lishi, shakllanishi va ilmiy jihatdan qanday rivojlangani o’rganiladi. As-Sam’oniyning o’zi ham muhaddis, adib va tarjimai hol yozuvchisi sifatida, ushbu asarda hadis ilmi, fiqh, adab, tarix, lug’at va boshqa sohalarga oid nodir kitoblardan foydalangan. Ushbu maqola nafaqat as-Sam’oniy asarining ilmiy qiymatini tahlil

qiladi, balki uni keyingi asr manbashunosligiga ta'siri va boshqa tazkira asarlar bilan o'zaro aloqadorligini ham ko'rsatadi. Maqola turli tillardagi (arab, fors, rus, ingliz) tarixiy va ilmiy manbalar asosida tayyorlangan bo'lib, zamonaviy g'oyaviy bo'shliqni tarixiy intellektual meros bilan to'ldirish zaruriyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Abu Sa'd as-Sam'oniy, tazkira, ilmiy meros, Movarounnahr, hadis, bio-bibliografiya, Al-muntaxab, manbashunoslik.

Abstract: This article presents an in-depth analysis of the Islamic intellectual heritage of Central Asia through the lens of *Al-Muntakhab min Mu'jam al-Shuyukh*, a 12th-century bio-bibliographical compilation authored by the eminent scholar Abu Sa'd al-Sam'anī. The work documents the lives, scholarly activities, travels, networks, and contributions of hundreds of scholars and poets from the Mā Warā' al-Nahr region. The article explores how this *tadhkira* fits within the wider tradition of Islamic biographical literature and reflects the interconnectedness of hadith studies, jurisprudence, literature, and historiography. Special attention is given to al-Sam'anī's methodological rigor, use of now-lost source materials, and his role in preserving intellectual memory through meticulous documentation. The study also highlights the geographical scope of his scholarly journeys and the rare manuscript traditions that carry his legacy. By comparing al-Sam'anī's work with later *tadhkiras* and source texts, the article demonstrates its foundational influence on Islamic source studies. It also argues for the importance of re-engaging with such texts in the modern era as a means of filling ideological voids with authentic historical and spiritual content rooted in Central Asia's scholarly heritage. The article is grounded in a wide range of Arabic, Persian, Russian, and English sources.

Key words: Abu Sa'd al-Sam'anī, *tadhkira*, scholarly heritage, Mā Warā' al-Nahr, Hadith, bio-bibliography, *Al-Muntakhab*, source studies.

Аннотация: Настоящая статья посвящена изучению исламского интеллектуального наследия Центральной Азии на основе биобиографического анализа труда XII века «Аль-мунтахаб мин Муджам аш-Шуюх», составленного выдающимся учёным Абу Са'дом ас-Сам'ани. В этом произведении собраны ценные сведения о сотнях учёных и литераторов региона Мавераннахр, включая их биографии, научные интересы, учительско-ученические связи, географию путешествий и вклад в развитие различных исламских наук — хадисоведения, фикха, арабской филологии, литературы и истории. Особое внимание в статье уделено жанру тозкиры как важному инструменту сохранения культурной памяти. Также анализируется научная методология Сам'ани, его источниковая база, включая редкие рукописи, и вклад в становление традиции составления биографических словарей в исламской культуре. Работа основана на критических изданиях, арабских, персидских, русских и английских научных трудах. В условиях современного идеологического вакуума автор подчёркивает значимость обращения к духовному наследию великих предков Центральной Азии как к источнику самосознания и интеллектуального обновления.

Ключевые слова: Абу Са'д ас-Сам'ани, тозкира, научное наследие, Мавераннахр, хадис, биобиблиография, аль-Мунтахаб, источникование.

Markaziy Osiyo xalqlari VIII-IX asrlarda ilk renessans, uyg'onish davrini boshdan kechirdi. Shu davrda ko'plab qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Xalifalikdan mustaqil bo'lgan somoniylar, qoraxoniylar davrida ham ilm rivojlandi, ko'plab olimlar faoliyat yuritdi. Hadis ilmida roviylar holatini o'rganish, ularni ishonchli va ishonchsizligini aniqlash maqsadida sanad, silsila kabi terminlar urfga kirdi. Shu jumladan ulamolarni hayotini o'rganib, tazkiralar tuzish, mo'jam (alfavitga asoslangan tartib bo'yicha ismlar ketma-ketligi) va nasab kitoblar yozish amaliyoti yuzaga keldi.

Shunday asarlardan biri o'n ikkinchi asrda yashab, ijod qilgan alloma Abu Sa'd as-Sam'oniy qalamiga mansub "Al-muntaxab min mo'jam ash-shuyux" (ulamolar jamoasidan saralanganlari) asaridir. Ushbu asarda bugungi O'zbekiston hududi hisoblanadigan Movarounnahr diyoridan yetishib chiqqan ko'plab alloma va adiblar hayoti ham yoritilgan. Bu allomalarining vorislari

o‘laroq, bugungi avlod farzandlariga o‘z meroslariga ega chiqmoq va ma’naviy merosni o‘rganib, ularni hayotga tatbiq etmoq zaruratdir. Bizga qimmatli ma’lumotlarni taqdim qilgan alloma Abu Sa’d as-Sam’oni ham XII asrning zabardast olimlaridan hisoblanadi. Mazkur maqoladagi ma’lumotlar 1996-yilda mashhur Saudiyalik manbashunos olim Muvaffaq bin Abdulloh bin Abdulqodir boshchiligidagi bir guruh arab olimlari tomonidan ar-Riyodda chop etilgan “Al-muntaxab min mo‘jam ash-shuyux” asarining 4 tomdan iborat tanqidiy nashriga asoslangan¹.

Mazkur asarda ilm va adabiyot sohasida katta meros qoldirgan va haligacha xalqimizga ma’lum bo‘lmagan ismlarni ko‘rishimiz mumkin. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi o‘rtasida ijod qilib o‘tgan adiblarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish, tahlil qilish va bu ma’lumotlarni xalqimiz uchun taqdim qilishdir. Hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan alloma va adib ajdodlarimiz merosini o‘rganish borasida shunchalik katta e’tibor berilayotgan ekan va bugungi tahlikaviy davrda mafkuraviy bo‘shliqdan dushmanlar unumli foydalanayotgan ekan, biz bu bo‘shliqni butun dunyoga ustozlik qilgan ajdodlarimiz hayotiy namunalari va ilmiy-badiiy asarlari bilan to‘ldirishimiz zarur va muhimdir.

Shunday kitoblardan biri Abu Sa’d as-Sam’oni qalamiga mansub “Al-muntaxabu min mo‘jam ash-shuyux” (Ulamolar jamoasidan saralanganlari) (المنتخب من مجمع الشيوخ) asaridir.

Ushbu asarda bugungi O‘zbekiston hududi hisoblanadigan Movarounnahr diyordan yetishib chiqqan ko‘plab alloma va adiblar hayoti yoritilgan. Adiblik va shoirlilik mohiyati to‘g‘risida XI asrda yashab ijod qilgan Nizomiy Aruziy Samarqandiy shunday deydi: “Shoirlik shunday san’atdirki, shoirlar u orqali vahm tug‘diruvchi boshlanish bilan natija beruvchi taqqoslovlari yordamida kichik ma’nolarni katta qiladi, katta ma’noni kichraytiradi²”.

Bu allomalarning vorislari o‘laroq, bugungi avlod farzandlariga o‘z meroslariga ega chiqmoq va ma’naviy merosni o‘rganib, ularni hayotga tatbiq etmoq zaruratdir. Bizga qimmatli ma’lumotlarni taqdim qilgan alloma Abu Sa’d as-Sam’oni ham o‘n ikkinchi asrning zabardast olimlaridan hisoblanadi. Mazkur dessertatsiyadagi ma’lumotlar 1996-yilda mashhur manbashunos olim Muvaffaq bin Abdulloh bin Abdulqodir boshchiligidagi bir guruh arab olimlari tomonidan ar-Riyodda chop etilgan “Al-muntaxabu min mo‘jam ash-shuyux” asarining 4 tomdan iborat tanqidiy nashriga asoslangan.

Mazkur asarda Abu Sa’d as-Sam’oni biografiyasi quyidagicha keltirilgan:

Imom, ulug‘ Hofiz, zamonasida tengsiz, Mashriq muhaddisi, Xuroson hofizi, Islom toji kabi unvonlarga sazovor bo‘lgan Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur ibn Muhammad ibn Abduljabbor ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ja’far ibn Ahmad ibn Abdul-Jabbor ibn Fazl ibn ar-Rabi’ ibn Muslim ibn Abdulloh ibn Abdul-Mujib as-Sam’oni, at-Tamiymiy, al-Xurosoniy, al-Marvazi, ash-Shofe’iyidir. Qavomuddin (dinni tutib turuvchi) laqabini olgan.

“Al-muntaxabu min mo‘jam ash-shuyux” asari muqaddimasida Sam’oniyning ilm olgan ustozlari haqida shunday ma’lumot berilgan:

Sam’oni turli ilmlar va fanlar gullab yashnagan shaharda va asrda tug‘ildi. Uning otasi va amakisi, barcha oila a’zolari islomiy tarbiya va mustahkam ilm olishiga qattiq e’tibor qaratdilar. Uning otasi to‘rt yoshlidayoq zamonasining tayanchi bo‘lgan bir necha olimlar huzuriga olib bordi. Ulardan Abdul-G‘affor ibn Muhammad ash-Shiroviy, Ubaydulloh ibn Muhammad al-Qushayriy, Sahl ibn Ibrohim as-Sub’iy kabi qancha olimlarni sanab o‘tish mumkin. Otasining e’tibori tufayli Abu Mansur Muhammad ibn Ali ibn al-Kuro‘iy va Muhaddis Abdulvohid ad-Daqqoqdan hadis eshitdi.

¹ الامام الحافظ ابو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. المنتخب من مجمع شيوخ. الرياض، 1417هـ-1996م.

² Nizomiy A. Samarqandiy. Majma’un-navodir yoxud chahor maqola. . –T.: Fan, 2021. – B. 40.

Otasi vafotidan keyin ham ilmni mahkam tutdi. Hijriy 530-yilda Nishopurga safar qildi. U yerda Abu Abdulloh al-Farovi, Abu Muzaffar ibn al-Qushayri, Hibatulloh ibn Sahl as-Sayyidi, Ismoil ibn Abu Bakr al-Qoriy, Fotima binti Za'bal, Zohir ibn Tohir va ularning tabaqasidagi olimlardan ilm oldi. Isfahonga safar qilgan Sam'oniy u yerda Husan ibn Abdulmalik al-Xallol, Sa'id ibn Abu ar-Rajo, Hofiz Ismoil ibn Muhammad at-Taymiyaldan tahsil oldi.

Hofiz Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur as-Sam'oniy (506–562/1113–1167) qalamiga mansub "Al-muntaxabu min mu'jam ash-shuyux" ("Ulamolar jamoasidan saralanganlari") asari XII asr tazkirachilik namunasidir.

Adabiyotning bir janri hisoblangan tazkiravisiylikning ham paydo bo'lishiga bir qancha omillar sabab bo'lgan. Hadis ilmlari shakllanayotgan vaqtida, bir Hadis og'izdan-og'izga ko'chib, keyingi avlodga yetardi. Shu vaqtida Hadis silsilasida ishtirok etgan kishilarni biografiyasi qattiq taftish qilinib, uning ishonchli kishi ekaniga barcha olimlar guvohlik bersa, Hadis sahih, ya'ni ishonchli hisoblanardi. Shu asnoda kishilarni o'rghanish va kitoblarga nomlarini tushirish an'anasi paydo bo'ldi. Keyinchalik muhaddislar, faqihlar, mutasavvif olimlar va adiblar tazkiralari paydo bo'ldi. Tazkira yozilish tartibiga ko'ra alifbo harflari asosida, tarixiy sanalar tartibi asosida va jug'rofiy joylashuv asosida tuziladi. Tazkiralardan umumiy yoki xususiy tarzda ham yoritilishi mumkin¹.

Yosh Alisher Navoiy maktabga borgan vaqtida ustoz tomonidan mustaqil o'qish uchun vaqt berilganda Attorning "Mantiqut-tayr" asarini tanlaydi². Bu Navoiyning Attor ijodiga yoshligidanoq mehr qo'yanining dalili edi.

Yurtimizda ham ko'plab tazkiralardan yaratilgan bo'lib, ulardan Abdurahmon Jomiyning "Nafahot al-uns min hazarot al-quds" asari, Alisher Navoiyning "Nasoyim al-muhabbat" va "Majolis an-nafois" kabi asarlarni keltirish mumkin. Bularidan tashqari Davlatshoh Samarqandiyining "Tazkirat ash-shuaro" asarida ham VII-XV asrlarda Eron va O'zbekistonda yashab ijod etgan 155 shoir haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan³. Adabiyotshunos olim Ismoil Bekjonning fikriga ko'ra, Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasi "Majolis an-nafois" va "Tazkirat ash-shuaro" dan keyin uchinchi o'rinda turadi⁴.

Abu Sa'ad As-Sam'oniyning bizgacha yetib kelgan asarlaridan dunyoning turli fondlarida 6 ta nusxasi saqlanayotgan "Kitob al-ansob" asari, yagona qo'lyozmasi Damashq kutubxonasida saqlanayotgan "Tahbir fil-mu'jam al-kabir" asari, 2 nusxada saqlangan va Leydenda 1952-yili nashr etilgan "Adab al-imla' val-istikla'", "Fazail ash-Shom", "Adab al-qozi", "Al-isfar an hukm al-asfar", "Zayd tarixi Bag'dod" asarlarini qayd etish mumkin⁵.

Abu Sa'ad As-Sam'oniyning "Al-muntaxab min mu'jam ash-shuyux" ("Allomolar jamoasidan saralari") asarida Qur'on, Fiqh, Hadis ilmlari bilan shuhrat qozongan mingdan ziyorat insonlar to'g'risidagi noyob ma'lumotlar o'z ifodasini topgan "Al-muntaxab min mu'jam ash-shuyux" asari asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmay, xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilib, bizgacha yetib kelgan⁶.

¹ Qurbanov B. Movarounnahr va Xuroson tazkirachilik maktabi shakllanishi. – B. 476-477. <https://www.oriens.uz>.

² Qayumov A. Alisher Navoiy. –T.: Kamalak, 1991. – B. 13.

³ Tarixiy manbleshunoslik. Elektron o'quv qo'llanma. –B. 201. <https://e-libriary.namdu.uz>

⁴ Ismoil Bekjon. Muzakkiri ahbob tazkirasi va uning muallifi haqida. Xurshid Davron kutubxonasi. www.kh-davron.uz.

⁵ Alimov Z. Historical geography and cultural history of the region al-Shash in the work "Mu'jam al-shuyukh" by Abu Sa'ad al-Sam'ani. International Journal of Multidisciplinary and Current Research. Vol.5 (Jan/Feb 2017 issue)

⁶ Alimov Z. Historical geography and cultural history of the region al-Shash in the work "Mu'jam al-shuyukh" by Abu Sa'ad al-Sam'ani. International Journal of Multidisciplinary and Current Research. Vol.5 (Jan/Feb 2017 issue) 3951 MarinaDel Rey, United States, CA 90292. 92-95-b.

O‘zining ikkinchi tazkira kitobi “Al-ansob” kitobini besh yuz elliginchi yilda Samarcandda yozgan¹. Shayxlar ismlari tartibini arab alifbosi tartibi bo‘yicha keltirgan. Ismi Ahmad bo‘lganini va undan keyin otasining ismi ham Ahmad bo‘lganini birinchi keltirgan. Otasining ismi mashhur bo‘lmagan va kunya bilan tanilgan shayxlarni asarni oxirida keltirgan. Hatto o‘zining ismi va otasining ismi bir xil bo‘lganlarni bobosining ismi e’tiboridan alifbo harflari asosida tartibga keltirgan. Asarni oxirida ayol ustozlarini ham keltirgan. Bu o‘rinda Alisher Navoiy qalamiga mansub “Nasoyim al-muhabbat min shamoyim al-futuvvat” tazkirasida ham o‘ttiz besh nafar ayol shayxlar keltirilganini eslab o‘tish maqsadga muvofiqdir².

Abu Sa’d Sam’oniy “Al-muntaxabu min mo‘jam ash-shuyux” asarini “Al-ansob” asaridan uch yil keyin yozgan. Shu e’tibordan mazkur asarda tilga olingan ustozlarining ba’zilari “Al-ansob” asarida keltirilmagan. Keyingi uch yilda uchrashgan shayxlari ismlari faqat shu noyob nusxa “Al-muntaxabu min mo‘jam ash-shuyux”da keltirilgani asar qiymatini yanada oshiradi.

Abu Sa’d Sam’oniyning ikkinchi tazkira asari “Al-ansob” ham tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘rganilib, tanqidiy nashrlari tayyorlangan. Bizgacha mazkur asarni 6 nusxasi yetib kelgan. Asosiy va to‘liq nusxasi Istanbulni Ko‘prulu kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxadan Beyrutdagi tanqidiy nashrning avvalgi olti tomida foydalanilgan. O’n ikki tomdan iborat tanqidiy nashr arab ligasi davlatlarining qo‘lyozmalar katalogida DJ2 №68 raqamida belgilab qo‘yilgan. Qo‘lyozma 915-hijriy, 1509-10 milodiy yilda Hirotda Abdulmajid ibn Muhammad al-Kirmoniy tomonidan chiroyli nasx xatida bitilgan va 482 sahifadan iborat. Faqat shu nusxada ko‘chirgan kotib va ko‘chirilgan sana saqlanib qolgan. Asarning ikkinchi nusxasi Sankt Peterburg sharqshunoslik institutida S-361 raqami ostida saqlanadi va 470 sahifadan iborat. Qo‘lyozmaning birinchi sahifasidan keyin o‘n varaq va bir qancha joylari tushib qolgan. Uchinchi nusxa Buyuk Britaniyaning Bodman milliy kutubxonasida №255, 23 raqam ostida saqlanadi va 603 sahifadan iborat. Yana bir nusxasi Istambulda Aya Sofiya kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxadan Beyrut tanqidiy nashrining keyingi olti tomini tuzishda foydalanilgan. Beshinchi nusxa Damashqdagi “Az-zohiriya” kutubxonasida saqlanadi. Oltinchi nusxa esa Hindistonning Haydarobod shahrida joylashgan Usmoniyarlarning Dakkan universiteti kutubxonasida 922, 97/1, raqami ostida saqlanadi. Bu qo‘lyozma nusxasi 239 sahifa va har sahifada 33 qator joylashtirilgan. Bu asarni Beirut tanqidiy nashrini arab olimi Abdurahmon ibn Yahyo al-Muallimi al-Yamaniy 1980-yilda amalga oshirishni boshlaydi. Birinchi olti tomi tayyor bo‘lganda al-Muallimi vafot etadi. Bu nashrni oxirgi olti tomini uning shogirdlari oxiriga yetkazib qo‘yadi va shu tariqa “Al-ansob”ning Beirut tanqidiy nashri dunyo yuzini ko‘radi³.

Abu Sa’d Sam’oniyning yana bir tazkira janridagi asari “At-tahbiru fil-mo‘jam al-kabir” deb nomlanadi. Mazkur asarning yagona nusxasi Damashqdagi “Az-zohiriyya” kutubxonasida №529 raqami ostida saqlanadi. Bu asarni 1985-yilda Bag‘dod universiteti magistranti Munira Nojiy Solim tadqiq qilib Bag‘dodda nashr qildirgan. Qo‘lyozma nusxasi 147 sahifadan iborat bo‘lib, unvon va kalafon qismlari saqlanib qolmagan. Shu sababli bu asarning nomi va muallifini aniqlash qiyin kechgan. Nihoyat tadqiqotchi olima uzoq izlanishlardan so‘ng bu asar Sam’oniyning “At-tahbiru fil-mo‘jam al-kabir” asari ekanini aniqlaydi⁴.

¹ Kamaliddinov Sh. “Kitab al-ansab” Abu Sa’d Abd al-Karima ibn Muxammada as-Sam’ani kak istochnik po istorii i istorii kultury Sredney Azii. –T.: Fan, 1993. – S. 14.

² Alisher Navoiy. Nasoimul muhabbat. (Ilmiy-tanqidiy matn) / nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va ko‘rsatkichlar muallifi H. Islomiy. – T.: Movarounnahr, 2011. – B. 377-390.

³ Kamaliddinov Sh. “Kitab al-ansab” Abu Sa’d Abd al-Karima ibn Muxammada as-Sam’ani kak istochnik po istorii i istorii kultury Sredney Azii. –T.: Fan, 1993. – S. 14.

⁴ الإمام الحافظ أبو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. التحبير في معجم الكبير. منیره ناجی سالم. بغداد، 1395هـ-1985م. ص. 9

Maqlola yordamchi manba sifatida Abu Sa'd Sam'oniyning "Al-ansob" va "At-tahbiru mo'jam al-kabir" tazkiralari, Yoqt Hamaviyning "Mo'jam al-udaba" va "Mo'jam al-buldon" asarlari, Imom Zahabiyning "Siyaru a'lam an-nubala" asari, Ibn Makuloning "Al-ikmal" asari, Ibn Asokir, Abul Hasan as-Sayduvoni, Tojiddin as-Subkiy, Umar ibn Fahd al-Makkiylarning "Mo'jam ash-shuyux" nomli asarlari, Abdulqodir al-Qurashiyning "Javohir al-muzia" asari, Qosim ibn Qutlubug'o as-Suduniyning "Toj at-tarojim" asari, Ali ibn Yusuf al-Qiftiyning "Inboh ar-ruvat ala anbah an-nuhat" asari, Ibni Asirning "Al-lubob fi tahzib al-ansob" asari, Abu Munzir al-Kalbiyning "Jamharat an-nasab" asari, Laknaviyning "Favaid al-bahiyya" asari, Subkiyning "Tabaqot ash-shofi'iyyat al-kubro" asari, Prezident asarlari, vazirlar mahkamas qarorlari, Alisher Navoiy asarlari va boshqa bir qancha o'zbek, fors, rus va ingliz tilida yozilgan adabiyot va manbalardan foydalanildi.

Ibn Najjor aytadi: "Sam'oniy imomlar imomidir. Ilm bilan ozuqalandi, amakisi al-Fazlni qaramog'ida ulg'aydi, imomlar yelkasiga ko'tarib yurishdi, odob bilan mashg'ul bo'ldi, mazhab va masalalarini o'rgandi, bahsu-munozara ilmida ijod qildi va nihoyat Hadis bilan mashg'ul bo'ldi¹.

Ibn Asir aytadi: "Abu Sa'd Sam'oniy din va dunyo rahnamoligini o'zida jamlagan ahli ilmlar xonadonidan yetishib chiqdi. Ammo Toj al-Islom Sam'oniylar xonadonining noyob gavhari, o'tkir ko'zi, yordamchi qo'li edi. Sam'oniylar xonadoni ulug'verligi Abu Sa'd bilan komil bo'ldi. Ilm talabida yerning sharqiyu g'arbi, shimoliyu janubiga safar qildi. Ulamolar bilan uchrashdi, ularni majlislarida o'tirdi, ulardan ilm oldi va ularni go'zal xulqlariga ergashdi².

Subkiy aytadi: "Abu Sa'd Toj al-Islomning o'g'li Toj al-Islomdir. Mashriq muhaddisi va ko'p foydali kitoblar muallifidir. U peshvolik va ulug'lik sohibidir".

Al-Asnaviy aytadi: "Abu Sa'd imom, olim, faqih, adib, muhaddis, dinning tayanchi va musannif imomlarning biridir".

Ibni Qozi Shuhba aytadi: "Buyuk hofiz, mashhur imom, shofe'iylar va muhaddislardan bo'lgan allomalarning biridir³".

Yozgan asarlari:

1. Al-axtoru fi rukub al-bihar (dengizdag'i xatarlar)
2. Adab at-tolab (ilm talab qilish odobi)
3. Al-imlau val-istimla (yozish va yozdirish ilmlari)
4. Adab al-qozi (qozining odobi)
5. Al-adabu fi iste'mal al-hasab (nasabni ifodalashdag'i odob)
6. Afaniy al-basatiyn (turli bo'stonlar)
7. Alfu hadisin an miati shayxin (yuz shayxdan ming hadis)
8. Al-amoliy (matnlar)
9. Al-ansab (nasablar)
10. Tarixu Marv (Marv tarixi)
11. Tarix al-vafati lil-mutaaxxiriyna min ar-ruvat (keyingi dav roviylarining vafot etish tarixlari)
12. Tabyinu ma'odin al-ma'oni (ma'no ma'danlarining bayoni)
13. Tuhfat al-iydayn (ikki iyd tuhfasi)
14. Taqdim al-jifani ilaz-ziyfan (mehmonlarga taom taqdim qilish)

¹ لام الحافظ ابو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. المنتخب من معجم شيوخ. الرياض، 1417هـ-1996م. ص. 34

²O'sha asar:– B. 34.

³O'sha asar: – B. 35.

15. Ar-rasail val-vasail(risolalar va vasilalar)
16. Fazail ash-Shom (Shom diyori fazilatları)
17. Maqom al-ulamo bayna yaday al-umaro (olimlarning amirlar oldidagi o‘rni)
18. Fazoilu surati Yasin (Yosin surasi fazilatları)
19. Solavat an-Nabiy (Payg‘ambarga salovat aytish)
20. Sovm al-ayyam al-biyaz (oq kunlar ro‘zasi)¹

Abu Sa’d Sam’oniy ellik olti yil umri davomida islomiy ilmlar tarqalgan barcha hududlarga safar qilib ulgurdi. Nafaqat safar qildi, balki olimlarni ilmlarini va xulqlarini o‘zida mujassam qildi. Sam’oniy yurgan yo‘llar bizning taraqqiyot zamonamizda texnikada yurganda ham ancha vaqt ketgan bo‘lardi. Minglab ustozlardan ilm olgan Sam’oniy ko‘plab shogirdlar ham yetishtirdi. Bugungi zamon o‘lchovi bilan hisoblaganda aql bovar qilmas natijalarga erishdi. Olgan ilmlarini kitoblarga jo qilib, keyingi avlodlarni bahramand qilgani ham ilmni davom etgani hisoblanadi. Sam’oniyning ko‘plab asarlari qatorida “Al-muntaxabu min mo‘jam ash-shuyux” asari bizga qimmatli ma’lumotlarni taqdim qiladi. Zotan olimlar moziydan turib, bizga xabar bermasalar biz ko‘p narsalardan bebahra qolgan bo‘lardik.

Abu Sa’d Sam’oniy o‘zining “Mo‘jam ash-shuyuxi Abi Sa’din as-Sam’oniy” asarida tarjimayı holi keltirilgan kishilarni holatlarini, ularga oid ilmiy xabarlarni, ularning shaxsiy hayotlarini, qilgan Hadis rivoyatlarini yoritishni o‘z oldiga maqsad qilgan va bunga qattiq e’tibor qaratgan. Mazkur “muntaxab” kitobida ham shu maqsadlar asos qilib olingan.

Sam’oniy o‘z tazkirasida katta ahamiyat bergen jihatidan yana biri ustozlari va shayxlarning yashagan yurt va shaharlari, ular safar qilgan mamlakatlar nomlarini aniq keltirishdir. Masalan, 333 tazkirada Abul Muzaffar Xalaf ibn Abdurahmon al-Makkiy, al-Xorazmiyni keltirgan. Uning bobosining otasi makkalik bo‘lganini, Xalafning o‘zi Xorazmnинг Rudon qishlog‘ida istiqomat qilganini, shu yerda farzandlari tug‘ilganini yozgan. Marv shahriga kelib, Qozi Sadid va Imom Abul Fazl Kirmoniylardan ilm olgach, Xorazmga qaytib Xorazmshoh Otsiz va uning o‘g‘li xizmatida bo‘lganini keltirgan. Sam’oniy aytadi: “Men Xalaf ibn Abdurahmon bilan birinchi marta 552/1157-yilda Xorazmda uchrashdim va ikkinchi marta 561/1166-yilda Marvda uchrashdim. Xalaf minarda turib men haqimda ikki bayt she’r aytdi²”. Sam’oniy boshqa o‘rinlarda ham shayxlaridan qanday ilm olganini, shayxlarini qayerda tug‘ilib qayerda istiqomat qilganini, qaysi shaharlarda ilm safarida bo‘lganini, necha marta uchrashganini, hatto tug‘ilgan va vafot etgan sanalarini aniq keltirgan. Xalaf ibn Abdurahmonning bobosining otasi makkalik ekanini ham ko‘rsatib o‘tgan.

Tazkirada kitoblarning nomlari, sifatlari va ulardan iqtiboslar keltirish asarning muhim asoslaridan biridir. “Mo‘jam ash-shuyux” asari bu kitobda keltirilgan manbalar va iqtiboslar e’tiboridan ishonchli va muhim tarixiy asar hisoblanadi. Chunki Sam’oniy iqtibos keltirgan asarlar eng mo‘tabar manbalar hisoblanadi va o‘z navbatida Sam’oniy foydalangan asarlar ham mashhur asarlardir. Sam’oniy foydalangan asarlarning katta qismi bizgacha yetib kelmagan. Mazkur asarda Sam’oniy bir qancha “Amoliy”, “Favaid”, “al-ajza” deb nomlangan bir qancha Hadis kitoblaridan foydalangan. “At-ta’rix”, “al-adab”, “al-lug‘at” kabi turli fanlarga oid adabiyotlardan foydalanilgani bu asarni muhim tarixiy asar ekanini ta’kidlaydi. Quyida Sam’oniy mazkur asarda foydalangan manbalardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

1. Al-ajzo as-Saqafiya. Qosim ibn Fazl ibn Ahmad Saqafiy.

¹ الامام الحافظ ابو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. المنتخب من مجمع شيوخ. الرياض، 1417هـ-1996م.

² الامام الحافظ ابو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. المنتخب من مجمع شيوخ. الرياض، 1417هـ-1996م. 1ج، ص. 775

2. Axbori Makka. Muhammad ibn Abdulloh al-Azraqiy.
3. Al-arba'in. Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad al-Jorudiy.
4. Al-umm. Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iy.
5. Tarixi Xorazm. Mahmud ibn Abbas ibn Raslon.
6. Sahih al-Buxoriy. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy.
7. Jomi' at-Termiziy. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy.
8. Sunan. Muhammad ibn Amr Marvaziy.
9. Fazilat al-ilm val-ulamo. Hibatulloh ibn Abdul Voris Sheroyziy.
10. Al-qandu fi ta'rixi Samarcand. Najmuddin Umar an-Nasafiy.

Bundan tashqari o'nlab olimlarning "Amoliy", "juz", "Favaid", "Hadis", "Musnad" deb nomlangan asarlaridan foydalangan¹. Bulardan tashqari o'zining ustozи Hofiz Damashq tarixchisi Ibn Asokir nomi bilan mashhur bo'lgan Abul Qosim Ali ibn Hasan asarlaridan ko'p o'rnlarda iqtiboslar keltirgan.

Sam'oniyning "Mo'jam ash-shuyux" asari o'z bobida nodir va muhim kitoblardan sanaladi. Shu jumladan o'zidan keyin yaratilgan ko'plab asarlarga manba vazifasini ham o'tagan:

1. Hofiz Abul Faraj Ibn Javziy o'zining "Al-muntazam" asarida ko'p o'rnlarda foydalangan.
2. Yoqut Hamaviy o'zining "Mo'jam al-buldon" va "Mo'jam al-udabo" asarlarida foydalangan.
3. Muhammad ibn Abdul G'ani ibn Nuqta o'zining "Takmilat al-ikmal" va "At-taqyid" asarlarida foydalangan.
4. Usmon ibn Abdurahmon Ibn Saloh "Tabaqot ash-shofe'iyya" kitobida foydalangan.
5. Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf Navaviy "Tabaqotu fuqaho ash-shofeiyya" asarida foydalangan.

Shu jumladan Muhammad ibn Ahmad Zahabi, Muhammad ibn Shokir al-Kutubiy, Xalil ibn Aybak as-Sodafiy va boshqa bir qancha tazkiranavis olimlar "Mo'jam ash-shuyux" asaridan foydalanganlar².

Abu Sa'd Sam'oniyning "al-muntaxab min mo'jam ash-shuyux" asarining yagona qo'lyozma nusxasi Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan Ahmad III kutubxonasida saqlanib qolgan. Bu nusxani tadqiq qilgan manbashunos olim Muvaffaq ibn Abdulloh ibn Abdulqodir shunday deydi: "Abu Sa'd Sam'oniyning "al-muntaxab min mo'jam ash-shuyux" asarining yagona qo'lyozma nusxasini Istanbuldagi Ahmad III kutubxonasidan topdim. Mazkur qo'lyozma kutubxonada 2953 raqam ostida saqlangan dunyodagi yagona nusxadir. Qo'lyozma kotib Abu Bakr ibn Abdulkofiy ibn Usmon al-Harosi al-Marog'iy tomonidan hijriy 647-yil 22 zulhijja oyida, milodiy 1250-yil 28-mart kuni ko'chirib tugatilgan. Asar chiroqli nasx xatida bitilgan. Asar sarlavhadan tashqari 299 sahifadan iborat. Bir varaqda ikki sahifa joylashgan va har bir sahifa 21 qatorni tashkil etgan.

Qo'lyozmaning xati yaxshi va o'qishga yaroqli saqlangan. Kotib ba'zi o'rnlarda nuqta va harakatlarni qo'ygan va ba'zi o'rnlarda e'tiborsiz qoldirgan. (Islomning avvalida arab tilida unli harflarni ifodalovchi ost va ust belgilari, hamda harflarni bir-biridan farqlaydigan nuqtalar qo'yilmagan. Olti nusxada ko'chirilgan Usmon mus'hafi ham shu shaklda yozilgan. Bugungi kunda O'zbekiston musulmonlari idorasiga qarashli "Hazrati Imom" majmuasida joylashgan "Mo'yi muborak" madrasasida ham shunday nusxalardan biri saqlanadi. Keyinchalik bir xil yozilib, o'qilishida farq qiladigan so'zlarga unli harakatlar qo'yish urf bo'lган.) Ayniqsa, atoqli ismlar, shahar va qishloqlar nomi ko'p o'rnlarda nuqta va harakatlari to'liq qo'ymasdan ketilgan.

¹ الإمام الحافظ أبو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. المنتخب من مجمع شيوخ. الرياض، 1417هـ-1996م. 1 ج، ص. 82

² الإمام الحافظ أبو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. المنتخب من مجمع شيوخ. الرياض، 1417هـ-1996م. 1 ج، ص. 86

Bizga ma'lum bo'lishicha, bu nusxaga ko'p marta murojaat qilingan va ko'p marta boshqa nusxalar bilan taqqoslab ko'rilgan. Chunki ko'p varaqlarining hoshiyasida bir kalimani keltirib, uning tepasiga "to'g'ri" degan belgi qo'yilgani o'sha kalima aslida bo'lganiga ishoradir. Masalan, ba'zi o'rnlarda "to'g'risi mana bunday" deb yozilgani bu nusxani ko'p marta qiyoslab ko'rilganiga dalolat qiladi. Asar boshidan oxirigacha to'liq saqlangan. Kalafon qismida: "bu asar Alloh bandalarining eng zaifi Abu Bakr ibn Abdulkofiy ibn Usmon al-Harosiy al-Marog'iyning qo'lida 647-yil 22 zulhijja oyida tamomiga yetdi. Alloh uni va barcha musulmonlarni kechirsin amiyn", deb yozilgan. Asarni tanqidiy nashrini amalga oshirgan Abdulloh ibn Muvaffaq qo'lyozmani elektron nusxasini jo'natgan Muhammad ibn Nosir al-Ajmiya minnatdorlik bildirgan¹".

Muvaffaq ibn Abdulloh ibn Abdulqodir shunday deydi: "Al-muntaxab min mo'jam ash-shuyux" asarini tadqiq qilib o'rganishdan maqsad, asarni to'liq matnini nashr qilib, kitobxonlar e'tiboriga havola qilish, ba'zi chalkashliklarga aniqlik kiritish, hamda nuqtalari tushib qolgan so'zlarni asl holatida taqdim qilishdan iborat edi.

Abu Sa'd Abdulkarim Sam'oni umrini ilm safarlarida o'tkazgan. Uning borgan shaharlarini geografik masofasini o'lchab ko'rilsa, bugungi texnika asrida ham ancha oylar yoki yillar ketishi mumkin. Sam'oni bir shahar yoki qishloqda o'ziga kerak ilmgaga ega olimlar bo'lsagina borgan va ilmni o'rganib boshqa shaharga yo'l olgan. Umri davomida ba'zi shaharlarga ikkinchi marta borganini ham aytib o'tgan. Sam'oni ijodining biz uchun qiymatli ekanining bosh sababi o'zi uchrashgan olim va adiblarni ismlari ota-bobolari, iqtidorlari ustoz va shogirdlari, tug'ilgan va vafot etgan kunigacha yozib qoldirgan. Ba'zi olimlarni "Al-ansob"da keltirgan bo'lsa, "Mo'jam ash-shuyux"da ham qayta keltirgan va qo'shimcha ma'lumotlar bergen. Sam'oniyning o'zi ham muhaddis bo'lib, asosan hadis to'plash ishlarini olib borgan. Uning hammaslak tengdoshi bo'lgan Ibn Asokir ham "Mo'jam ash-shuyux" asarini tuzib, tazkira yozgan. Sam'oniyning Ibn Asokirdan farqli jihat, Sam'oniyning she'r va adabiyotga oshno bo'lganidir. Bir alloma she'r aytgan bo'lsa, yoki sheri asar yozgan bo'lsa Sam'oniya nazaridan chetda qolmagan.

Yoqut Hamaviy va Ibn Asokir Sam'oni bilan zamondosh bo'lsada, ularning asarlarida Movarounnahlik shoir va adiblan ko'p emas. Sam'oni asarini o'qib chiqqan kishi uning Movarounnahr shaharlariga qayta-qayta kelib, adib va olimlari bilan xatlar yozishganiga guvoh bo'ladi. Asarda allomalarining boshqa qirralarini yoritib o'tib, shoir va adibligiga alohida to'xtalib, she'rlaridan namunalar keltirishi Sam'oniyning o'zi ham katta adib ekanini ko'rsatadi. She'rga qiziqishi bo'limgan kishi bunga e'tibor bermaydi. Adiblarning she'rlaridan namunalar keltirish va unga javoban she'r yozish faqat Yoqut Hamaviy asarida uchradi. Hamaviy ham katta adib va shoir ekanligi asaridan ko'rinish turadi. Boshqa ko'p tazkiralar esa ma'lumot berish bilan kifoyalanganini mushohada qilish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Abu Sa'd Sam'oni o'z asarlarida juda katta ilmiy va ma'naviy meros qoldirgan. Uning bizgacha yetib kelgan asarlari soni ellikka yetadi, bizgacha yetib kelmagan asarlari qancha ekani ma'lum emas. Sam'oniyning ko'plab izlanishlar olib borib, katta asarlar yozishi birinchi navbatda o'zi yashab turgan muhit bilan bog'liqdir. Uning davri ilmiy uyg'onish davriga to'g'ri kelgan va o'sha davrda aynan Sam'oni tug'ilgan Marv shahri katta olimlar to'plangan ilm markazlaridan biri edi. Yoshligidanoq katta olimlar ilmidan bahramand bo'lgan Sam'oni dunyo kezib, boshqa ilm markazlari va katta olimlar ilmini ham to'play boshlaydi. Hayoti mobaynida Sam'oni safar qilgan shaharu qishloqlar geografik jihatdan juda katta masofani tashkil qiladi. Bu o'sha vaqtida bu masofa ayov yoki ot va tuya bilan bosib

¹ الإمام الحافظ أبو سعد عبد الكرييم بن محمد بن منصور السمعاني. المنتخب من مجمع شيوخ. الرياض، 1417هـ-1996م. 1ج، ص. 99

o‘tilganini hisobga olinsa, juda hayratlanarlidir. Minglab ustozlardan ta’lim olish va ulardan olgan ilmlarni kitoblarga jamlash uchun juda ko‘p vaqt kerak bo‘ladi. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, Sam’oniyning umri ilm yo‘lida juda barakali bo‘lgan.

Sam’oniy asarlaridan keyingi asrlarda yozilgan tazkiralarda Sam’oniy keltirgan olimlar hayoti haqida qisqa ma’lumotlar berilgan va Sam’oniy asarlari asosiy manba sifatida ko‘rsatilgan. Sam’oniy minglab olimlar haqida ma’lumot bergen bo‘lsada, uning ma’lumotlari qisqa, lo‘nda va aniq berilgan va undan keyingi asarlarga manba bo‘lib xizmat qilgan. Masalan “Al-ansob” asarida Shiyraz va Sheroz shaharlari bilan nisbatlangan olimlar alohida keltirilgan va bu ikkalasi bir shahar emasligi ko‘rinib turipti. Sam’oniy ma’lumotlari o‘rtta asr adib va shoirlarining xulqi, ilmu ma’rifati, mentaliteti va ilmiy ijodi haqida dunyoqarashimizni shakllantirishda katta yordam beradi.



FALASTINNING DEMOGRAFIK TARIXI

TO‘YCHI TAYLAQOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya: Ushbu maqola Falastin hududining demografik tarixini qadimgi davrlardan hozirgi kungacha qamrab oladi. Unda Falastinning geografik joylashuvi, iqlimi, tarixiy va siyosiy bo‘linishlari, shuningdek, aholi tarkibidagi o‘zgarishlar keng tahlil qilingan. Maqolada 1948-yilda Isroil davlatining tashkil etilishi va undan keyingi arab-isroil urushlari natijasida Falastin aholisi tarkibidagi keskin o‘zgarishlar bayon etiladi. Urush natijasida paydo bo‘lgan Falastin qochoqlari masalasi, shuningdek, yahudiylarning turli mintaqalardan ko‘chib kelishi natijasida yuzaga kelgan migratsiya jarayonlari hamda Falastin aholisining soni va tarkibi turli davrlarda qanday o‘zgarib borganligi muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot Falastinning tarixiy demografik jarayonlarini chuqur tahlil qilish bilan birga, ushbu hududning ijtimoiy va siyosiy murakkabliklarini tushunishga xizmat qiladi.

Maqola, shuningdek, Falastin hududining bugungi kun demografik muammolariga ham e’tibor qaratadi. Isroil davlatidagi yahudiylar va arablar o‘rtasidagi demografik nisbiy o‘zgarishlar, Falastindagi yuqori tug‘ilish darajalari va migratsiya masalalari hududning siyosiy kelajagini belgilovchi asosiy omillar sifatida baholangan. Tadqiqot Falastin tarixi va bugungi kunini birgalikda tahlil qilib, hududdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy murakkabliklarning ildizlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Falastin, demografik tarix, yahudiy, arab, Isroil, G‘arbiy sohil, G‘azo sektori, falastin qochoqlari, migratsiya

Abstract: This article explores the demographic history of Palestine from ancient times to the present day. It provides a detailed analysis of Palestine’s geographical location, climate, historical and political divisions, as well as changes in its population composition. The article describes the dramatic shifts in Palestine’s demographic structure resulting from the establishment of the State of Israel in 1948 and the subsequent Arab-Israeli wars. It examines the Palestinian refugee crisis that emerged as a consequence of the war, as well as the migration processes triggered by the resettlement of Jews from various regions. The dynamics of Palestine’s population size and composition across different historical periods are discussed. This study, along with its in-depth analysis of Palestine’s historical and demographic processes, contributes to a better understanding of the social and political complexities of this region.

The article also focuses on the current demographic challenges in the Palestinian territories. Demographic shifts between Jews and Arabs in the State of Israel, high birth rates in Palestine, and